



## KOMMUNIKATIV MULOQOTGA OID NAZARIY VA PRAGMATIK YONDASHUVLAR

**Yuldashev Sherzod Rabbimkulovich,**

Samarqand viloyati Ishtixon tumani

[syuldashev648@gmail.com](mailto:syuldashev648@gmail.com)

**Annotatsiya:** Mazkur ilmiy maqolada kommunikativ muloqotning nazariy-pragmatik asoslari hamda muloqot jarayonida axborotning uzatilishi va qabul qilinishi bilan bog'liq lingvopragmatik masalalar tahlil qilinadi. Tadqiqotda so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi kommunikativ munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari, axborotni kodlash va dekodlash jarayonlarida yuzaga keladigan tafovutlar hamda ularning muloqot samaradorligiga ta'siri yoritiladi. Shuningdek, mazkur jarayonlar pragmatik nutqiy aktlar nazariyasi doirasida tavsiflanib, kommunikativ maqsad, nutqiy strategiya va adresat omilining muloqot mazmunini shakllantirishdagi ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan asoslanadi.

**Kalit so'zlar:** kommunikativ aktlar, kommunikativ strategiya, muloqot, nutqiy faoliyat, kommunikatsiya, so'zlovchi, tinglovchi.

Inson hayoti davomida turli kommunikativ vaziyatlarda ishtirok etib, ko'plab kommunikativ aktlarni amalga oshiradi. Muloqotning muvaffaqiyatli va samarali kechishi kommunikativ maqsadga mos nutqiy xulq-atvor modelining tanlanishiga bog'liq. Muayyan kommunikativ niyatni amalga oshirish uchun esa kommunikativ strategiya tomonidan belgilangan lingvistik va pragmatik vositalar hamda usullar tizimidan foydalaniladi. Shu bois kommunikatsiya ko'plab omillar ta'sirida shakllanuvchi murakkab va ko'p qirrali hodisa sifatida e'tirof etiladi. U inson faoliyatining barcha jabhalarida muhim o'rin egallab, ijtimoiy munosabatlar va biznes faoliyatining samarali tashkil etilishida asosiy omillardan biri hisoblanadi [Почепцов; 126].

Ilmiy adabiyotlarda "kommunikatsiya" tushunchasi ko'pincha "muloqot" hamda "nutqiy faoliyat" tushunchalari bilan uzviy bog'liq holda talqin qilinadi. Biroq mazkur terminlar mazmunan bir-biriga yaqin bo'lsa-da, ular o'rtasida muayyan farqlar mavjud. Muloqot, avvalo, fikrlar, axborot va hissiyotlarning almashinuvi jarayonini anglatasa, kommunikatsiya axborotni uzatish va almashish orqali adresatga ma'lum ta'sir ko'rsatishga yo'naltirilgan faoliyat sifatida namoyon bo'ladi. Shu ma'noda kommunikatsiya shaxs tomonidan o'zlashtirilgan bilim va ma'lumotlar bilan ijtimoiy ongda shakllangan axborot o'rtasidagi bog'lovchi bo'g'in vazifasini bajaradi.



Kommunikativ aktning amalga oshirilishi nutqiy faoliyat orqali ro'y beradi. Shaxslararo muloqotda mimika, jest va boshqa noverbal vositalar ham muhim ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Biroq katta ijtimoiy guruhlar miqyosida nutqiy vositalarsiz samarali kommunikatsiyani tasavvur etib bo'lmaydi. Chunki aynan nutqiy faoliyat orqali jamiyatda amal qiluvchi me'yorlar, qadriyatlar va ijtimoiy qoidalar ifodalanadi. Muloqot, kommunikatsiya va nutqiy faoliyat tushunchalarini birlashtiruvchi omillar ularning til, axborot almashinuvi va ijtimoiy xulq-atvor bilan bog'liqligida namoyon bo'ladi. Ular orasidagi asosiy tafovut esa qamrov darajasi bilan izohlanadi. Kommunikatsiya kengroq tushuncha bo'lib, u katta ijtimoiy guruhlar doirasidagi maqsadga yo'naltirilgan verbal va noverbal o'zaro ta'sirlarni qamrab oladi.

Kommunikatsiya o'zaro bog'langan kommunikativ voqealar tizimidan iborat bo'lib, uning natijasida matn yuzaga keladi. Shu sababli kommunikativ akt kommunikatsiyaning asosiy birligi sifatida qaraladi. E.V. Klyuyevning ta'kidlashicha, kommunikativ akt «... коммуникантлар томонидан ўзаро юзма-юз амалга ошириладиган нуткий актлар мажмуасидир» [Клюев; 14].

Kommunikatsiya jarayonida kommunikativ vaziyat ham alohida ahamiyat kasb etadi. V.A. Maslovaning fikricha, «Коммуникатив вазият ҳар қандай нуткий ҳаракатнинг бошланғич нуктаси ҳисобланади. Бу инсонни нуткий ҳаракатга ундайдиган, ифода қилиш мотивини юзага келтирадиган ва нуткий ҳаракатни амалга ошириш эҳтиёжига айланиши мумкин бўлган вазиятлар мажмуасидир» [Маслова; 34].

Kommunikativ jarayon ishtirokchilarining xulq-atvori ularning ijtimoiylashuv darajasi, madaniy saviyasi, qadriyatlar tizimi, kommunikativ muhit va muloqot maqsadlari bilan belgilanadi. Ushbu omillar kommunikativ strategiyaning tanlanishiga va uning muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Kommunikativ strategiya kommunikatsiya davomida qanday natijaga, qaysi vositalar yordamida va qanday shaklda erishilishini belgilovchi markaziy komponent hisoblanadi.

E.V. Klyuyev kommunikativ maqsadni «... коммуникатив актга йўналтирилган стратегик натижа» sifatida tavsiflaydi [Клюев; 21]. Olimning ta'kidlashicha, ushbu natija verbal darajada ham (va'da berish, rad etish, e'tiroz bildirish va boshqalar), jismoniy harakatlar darajasida ham (masalan, ish boshlash yoki muayyan qaror qabul qilish) namoyon bo'lishi mumkin.

Kommunikativ maqsadning amalga oshish darajasi kommunikativ akt samaradorligini belgilaydi. G.P. Graysning fikricha, kommunikativ samaradorlik «тингловчига таъсир этиш бўлиб, унинг орқали гапирувчининг нияти англанади» [Грайс; 327]. Biroq kommunikatsiya jarayonida bir nechta



ishtirokchilarning maqsad va manfaatlari kesishganligi sababli kutilgan natija har doim ham kommunikativ niyat bilan to'liq mos kelavermaydi.

L.L. Fedorova kommunikativ maqsadlarning quyidagi turlarini ajratadi: ijtimoiy ta'sir, emotsional ta'sir, axborot yetkazish, psixologik dasturlash, isbotlash, ishontirish, chaqiriq, buyruq berish, majburlash va baholash [Федорова; 154].

Kommunikativ muhit kommunikatsiya jarayoni va tashqi omillarning o'zaro ta'siri natijasida shakllanadi. Uning qulay yoki noqulay bo'lishi kommunikativ maqsadlarga erishish darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu bois samarali kommunikatsiyani ta'minlash uchun jamiyat tomonidan muayyan kommunikativ kelishuvlar ishlab chiqiladi. Ularning nazariy asosini G.P. Grays tomonidan ilgari surilgan hamkorlik prinsipi tashkil etadi. Mazkur prinsip miqdor, sifat, munosabat va uslub kabi to'rtta asosiy tamoyilni o'z ichiga olib, muloqot ishtirokchilarining o'zaro tushunishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Shunday qilib, kommunikativ strategiyalar va taktikalarni tadqiq etishda kommunikatsiyaning barcha tarkibiy qismlarini, jumladan kommunikatsiya kanali, adresant va adresat, matnning lingvistik hamda ekstralingvistik xususiyatlari, kommunikativ maqsad va kommunikativ vaziyatni kompleks ravishda hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Почепцов Г.Г. Теория коммуникации. – Москва: Рефл-бук; Ваклер, 2001. – 126 с
2. Ключев Е.В. Речевая коммуникация. – Москва: Рипол классик, 2002. – 14 с
3. Маслова А.Ю. Введение в прагмалингвистику: учебное пособие. – Москва: Флинта; Наука. 2008. – 34с.
4. Грайс Г.П. Логика и речевоеП. Грайс Новое в зарубежной лингвистике. – Москва: Прогресс, 1985. – Вып. 16. Лингвистическая прагматика. – С. 327
5. Федорова Л.Л. Об определении функций речевых актов // Компьютерная лингвистика и интеллектуальные технологии: 191 материалы международной конференции «Диалог-2003» (Протвино, 11–16 июля 2003 г.). – Москва: Наука, 2003. – С. 151 – 156.